



STARTAP LOYIHALARINI BOSHQARISH YONDASHUVLARINING TAHLILI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

To‘lqinova Nozimaxon Zaynabiddinxon qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi

70411202- Loyiha Boshqaruvi yo‘nalishi magistranti

email: muxsumxonovanozimaxon0909@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola startap loyihalarini boshqarishning asosiy yondashuvlarini (Lean Startup, Agile, Scrum, Waterfall va gibridd modellar) tizimli tahlil qiladi. Startaplarning yuqori noaniqlik, resurslar cheklanganligi va tez o‘zgaruvchan bozor sharoitlarida samarali boshqaruv usullarining afzalliklari, kamchiliklari va qo‘llash doiralari ko‘rib chiqiladi. Maqolada empirik tadqiqotlar, case study lar va zamonaviy amaliyotlar asosida startap loyihalarini boshqarishni takomillashtirish yo‘nalishlari taklif etiladi. Natijalar startap muvaffaqiyat darajasini oshirishda yondashuvlarni moslashtirish muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Startap loyihalari, Loyihalarni boshqarish, Lean Startup, Agile metodologiyasi, Scrum, Gibridd modellar, Risklarni boshqarish, Innovatsion loyihalar, Startap takomillashtirish, Loyiha muvaffaqiyati.

Tadqiqot respondentlarining profili va startaplarning rivojlanish bosqichlari tahlili

Mazkur tadqiqot doirasida startap ekotizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar orasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma orqali startap loyihalarini boshqarishda qo‘llanilayotgan metodologiyalar hamda ularning startap



muvaffaqiyatiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotda jami **27 nafar respondent** ishtirok etdi. Respondentlar startap faoliyatining turli bosqichlarida ishtirok etayotgan mutaxassislar bo'lib, ularning tajribasi va lavozimlari startap boshqaruv jarayonining turli jihatlarini qamrab oladi.

Respondentlarning lavozimlari bo'yicha taqsimoti startap ekotizimining turli rollarini aks ettiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra respondentlarning katta qismi **“boshqa” toifasini tanlagan bo'lib, ular jami 16 nafarni tashkil etdi.** Ushbu toifaga startap jamoasining turli a'zolari, masalan dasturchilar, marketing mutaxassislari, operatsion menejerlar yoki boshqa texnik va biznes yo'nalishdagi mutaxassislar kirishi mumkin. Bu esa tadqiqotda startap jamoasining turli qatlamlari fikri ham aks etganini ko'rsatadi.

Shuningdek, respondentlar orasida loyiha boshqaruvi bilan bevosita shug'ullanadigan mutaxassislar ham mavjud. Xususan, **3 nafar respondent Project Manager** lavozimini tanlagan. Project Manager startap jamoasining ish jarayonini tashkil etish, sprintlarni rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash hamda loyiha muddatlarini nazorat qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu sababli ularning fikrlari startap boshqaruvi yondashuvlarini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Respondentlar orasida **2 nafar startap asoschisi (Founder)** ham ishtirok etdi. Startap asoschilari odatda biznes modelni shakllantirish, strategik qarorlar qabul qilish hamda investitsiyalar jalb qilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Ularning fikrlari startap strategiyasi va boshqaruv yondashuvlari samaradorligini baholashda muhim manba hisoblanadi.


Bundan tashqari, tadqiqotda **2 nafar CEO (Chief Executive Officer)** ham qatnashdi. CEO startap faoliyatining umumiy strategik rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs hisoblanadi. Ular biznes modelni rivojlantirish, investitsiya strategiyasini belgilash hamda jamoani boshqarish kabi muhim vazifalarni bajaradi.



Respondentlar orasida mahsulot rivojlanish jarayonida faol ishtirok etuvchi mutaxassislar ham mavjud. Xususan, **1 nafar Product Manager** tadqiqotda ishtirok etdi. Product Manager mahsulotni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, foydalanuvchi ehtiyojlarini o'rganish hamda mahsulot-bozor mosligini ta'minlash jarayonlarida muhim rol o'ynaydi.

Texnik jamoa vakillari ham tadqiqotda ishtirok etdi. Jumladan, **2 nafar Tech Lead** respondent sifatida qatnashdi. Tech Lead startapning texnologik rivojlanishi, dasturiy ta'minot arxitekturasini hamda texnik jamoa ish jarayonini boshqarish bilan shug'ullanadi. Ularning fikrlari Agile metodologiyasi va texnik boshqaruv jarayonlarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqotda **1 nafar investor** ham ishtirok etdi. Investor startap loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash hamda investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Respondentlarning lavozimlari bo'yicha taqsimoti diagramma ko'rinishida quyidagi rasmda keltirilgan:



4.1.1-rasm. Respondentlarning lavozimlar bo'yicha taqsimoti

Manba: So'rovnoma asosida muallif tomonidan tuzildi.



Respondentlarning lavozimi bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, so'rovnomada turli kasbiy yo'nalish vakillari ishtirok etgan. Eng katta ulushni boshqa lavozimdagi mutaxassislar tashkil etib, ular umumiy respondentlarning 60 foizini tashkil qildi. Bu startap ekotizimining turli ishtirokchilari tadqiqotda qatnashganini ko'rsatadi. Bu esa tadqiqot natijalarining startap ekotizimi nuqtai nazaridan yanada ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

4.1.1-jadval

Respondentlarning startap sohasidagi tajribasi

Tajriba (yil)	Respondentlarning soni	Ulushi(%)
0-1	15	56
1-3	8	30
3-5	2	7
5+	2	7
Jami	27	100

***Manba:** So'rovnoma asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Respondentlarning startap sohasidagi tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning katta qismi startap ekotizimiga nisbatan yaqinda kirib kelgan mutaxassislardan iborat. Xususan, respondentlarning 56 foizi startap sohasida 0–1 yil tajribaga ega ekanligini bildirgan. Bu holat startap ekotizimi yangi mutaxassislar uchun ham jadal rivojlanayotgan muhit ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 1–3 yil tajribaga ega respondentlar ulushi ham sezilarli bo'lib, ular umumiy respondentlarning 30 foizini tashkil etadi.

4.1.2-jadval

Startaplarning rivojlanish bosqichi



Bosqich	Respondentlar	Ulush (%)
G'oya	17	63
MVP	1	4
Bozorga chiqish	3	11
O'sish	5	18
Masshtablashtirish	1	4
Jami	27	100

***Manba:** So'rovnoma asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*


Startup rivojlanish bosqichlari bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, respondentlarning katta qismi hali startup rivojlanishining dastlabki bosqichida faoliyat yuritmoqda. Xususan, respondentlarning 63 foizi startaplar g'oya bosqichida ekanligini bildirgan. Bu startup ekotizimida yangi innovatsion loyihalar soni ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'sish bosqichida faoliyat yuritayotgan startaplar ulushi ham sezilarli bo'lib, bu ayrim startaplarning mahsulot–bozor mosligiga erishganini ko'rsatadi.

4.2. Agile, Lean Startup, Risk Management, pivot strategiyasi va Product–Market Fit tushunchalarining startup boshqaruvidagi o'rni

Zamonaviy startup ekotizimida innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli boshqarish uchun moslashuvchan, tezkor va ma'lumotlarga tayanuvchi boshqaruv metodologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy loyiha boshqaruvi usullari, odatda, qat'iy rejalashtirish, uzoq muddatli strategik yo'nalish va oldindan belgilangan bosqichlarga tayanadi. Biroq startaplar faoliyat yuritadigan muhit yuqori darajadagi noaniqlik, tez o'zgaruvchan bozor talablari, resurslar



cheklanganligi va foydalanuvchi ehtiyojlarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan tavsiflanadi. (Blank & Dorf, 2020; Blank & Dorf, 2020; PMI, 2021).



4.2.1-rasm. Startaplarda Agile metodologiyasidan foydalanish.

***Manba:** So'rovnoma asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Mazkur tadqiqotda respondentlarning startap faoliyatida aynan ushbu metodologiyalar qanchalik qo'llanilayotgani o'rganildi. So'rovnoma natijalari startap jamoalari moslashuvchan boshqaruv yondashuvlarini faol qo'llayotganini ko'rsatdi. Xususan, 18 nafar respondent Agile metodologiyasidan o'z startapida foydalaninishini aytgan bo'lsa, 9 nafar respondent buni rad etgan. Bu esa startaplarning tez o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish uchun an'anaviy usullardan ko'ra moslashuvchan va iterativ boshqaruv mexanizmlarini afzal ko'rayotganini anglatadi.

Agile metodologiyasining startap boshqaruvidagi roli

Agile metodologiyasi zamonaviy loyiha boshqaruvi yondashuvlari orasida eng keng qo'llaniladigan metodologiyalardan biri hisoblanadi. Mazkur metodologiya dastlab dasturiy ta'minot ishlab chiqish sohasida shakllangan bo'lsa-



da, bugungi kunda u innovatsion biznes, startup loyihalari va texnologik kompaniyalarda samarali boshqaruv vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Agile yondashuvi 2001-yilda qabul qilingan Agile Manifesto tamoyillariga asoslanadi va unda moslashuvchanlik, iterativ rivojlanish, jamoaviy hamkorlik hamda foydalanuvchiga qiymat yetkazib berish ustuvor deb qaraladi (Beck et al., 2001; PMI Pulse of Profession 2021–2024).

An'anaviy loyiha boshqaruvi yondashuvlari, xususan Waterfall modeli, qat'iy rejalashtirish va bosqichma-bosqich amalga oshirishga asoslanadi. Biroq startaplar faoliyat yuritadigan muhit odatda yuqori darajadagi noaniqlik bilan tavsiflanadi. Bozor talablari tez o'zgaradi, foydalanuvchi ehtiyojlari jarayon davomida aniqlashib boradi va mahsulot konsepsiyasi bir necha bor o'zgarishi mumkin. Shu sababli qat'iy rejalashtirishga asoslangan boshqaruv usullari startaplar uchun har doim ham samarali bo'lavermaydi. Agile metodologiyasi esa aynan shunday sharoitlarda moslashuvchan boshqaruv mexanizmini taqdim etadi (PMI, 2021).

Agile metodologiyasining asosiy g'oyasi mahsulotni kichik iteratsiyalar orqali rivojlantirishdan iborat. Ushbu iteratsiyalar odatda sprint deb ataladi va ular 1–4 haftalik qisqa davrlarni o'z ichiga oladi. Har bir sprint davomida jamoa muayyan vazifalarni bajaradi va sprint yakunida ishlaydigan mahsulot funksiyasi yoki uning muhim qismi taqdim etiladi. Bunday yondashuv mahsulotni muntazam ravishda takomillashtirish hamda foydalanuvchilardan olingan fikr-mulohazalar asosida tezkor o'zgarishlar kiritish imkonini beradi (Schwaber and Sutherland, 2020).

Agile metodologiyasining muhim elementlaridan biri **product backlog** hisoblanadi. Product backlog — bu mahsulotni rivojlantirish uchun bajarilishi kerak bo'lgan barcha vazifalar, talablar va g'oyalar ro'yxatidir. Ushbu ro'yxat muntazam ravishda yangilanadi va ustuvor vazifalar jamoa tomonidan sprint davomida amalga oshiriladi. Product backlog startup jamoasiga ish jarayonini tizimli tashkil etish, muhim vazifalarni saralash hamda resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi




Agile metodologiyasida jamoaviy kommunikatsiya alohida o‘rin tutadi. Masalan, **daily stand-up** uchrashuvlari jamoa a‘zolarining kundalik faoliyatini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Ushbu uchrashuvlar odatda qisqa bo‘lib, ularda jamoa a‘zolari bajarilgan ishlar, joriy vazifalar va mavjud muammolar haqida ma’lumot beradi. Bunday yondashuv jamoa ichidagi shaffoflikni oshiradi va muammolarni tezkor hal qilish imkonini yaratadi (PMI Pulse of Profession 2021–2024).

Agile metodologiyasining yana bir muhim elementi **sprint review** va **retrospektiva** jarayonlaridir. Sprint review jarayonida jamoa bajarilgan ish natijalarini namoyish qiladi va manfaatdor tomonlar bilan birgalikda mahsulot rivojlanishini muhokama qiladi. Retrospektiva esa jamoaning o‘z ish jarayonini tanqidiy tahlil qilishiga yordam beradi. Ushbu bosqichda jamoa o‘z faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlab, keyingi sprint uchun takomillashtirish choralarini ishlab chiqadi (Schwaber and Sutherland, 2020).

Bundan tashqari, Agile metodologiyasi jamoa madaniyatini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Agile muhitida ishlaydigan jamoalar ochiq kommunikatsiya, tezkor qaror qabul qilish, o‘zgarishlarga tayyorlik va tajriba o‘tkazishga ochiqlik bilan ajralib turadi. Bu esa innovatsion muhitda ishlayotgan startaplar uchun muhim afzallik hisoblanadi. Shunday qilib, Agile metodologiyasi startap jamoalariga mahsulotni tezkor rivojlantirish, bozor o‘zgarishlariga moslashish hamda jamoaviy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Lean Startup konsepsiyasining startap boshqaruvidagi roli



4.2.2-rasm. Lean Startup metodologiyasidan foydalanish.

Manba: So'rovnoma asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tadqiqotda 27 nafar ishtirokchidan deyarli 74% ulushi, ya'ni 20 nafar respondent Lean Startup amaliyotidan foydalanishini bildirgan. Bu natija startap jamoalarining mahsulotni iterativ rivojlantirish hamda foydalanuvchi fikrlariga asoslanib strategiya shakllantirishga katta e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi.

Lean Startup konsepsiyasi zamonaviy startap ekotizimida keng qo'llaniladigan innovatsion boshqaruv yondashuvlaridan biridir. Ushbu konsepsiya startaplarni tezkor eksperimentlar, foydalanuvchi fikrlarini o'rganish hamda bozor talablariga moslashuvchan strategiyalar orqali rivojlantirishni nazarda tutadi. Lean Startup yondashuvi Eric Ries tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u innovatsion biznesni rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslangan eksperiment sifatida ko'rib chiqadi (Blank & Dorf, 2020).



Lean Startup metodologiyasining asosiy g'oyasi shundan iboratki, startaplar mahsulotni mukammal darajaga yetkazishga urinishdan ko'ra, avvalo minimal funksiyalarga ega bo'lgan mahsulotni yaratib, uni real foydalanuvchilar orqali sinovdan o'tkazishi kerak. Bunday mahsulot **Minimum Viable Product (MVP)** deb ataladi. MVP mahsulotning eng muhim funksiyalarini o'z ichiga olgan dastlabki versiyasi bo'lib, u startap jamoasiga mahsulotni tezkor tarzda bozorga chiqarish hamda foydalanuvchilarning reaksiyasini o'rganish imkonini beradi (Blank & Dorf, 2020).

Startaplar ko'pincha resurslari cheklangan sharoitda faoliyat yuritadi. Shu sababli mahsulotni uzoq vaqt davomida ishlab chiqish va keyin bozorga chiqarish katta risklarni keltirib chiqarishi mumkin. Lean Startup yondashuvi esa mahsulotni imkon qadar tezroq sinovdan o'tkazish va bozor reaksiyasiga qarab strategiyani o'zgartirish imkonini beradi.

Lean Startup metodologiyasining markaziy elementi **Build–Measure–Learn** sikli hisoblanadi. Ushbu sikl uch bosqichdan iborat: birinchi bosqichda mahsulotning dastlabki versiyasi ishlab chiqiladi (**Build**), ikkinchi bosqichda foydalanuvchilarning mahsulotga bo'lgan munosabati o'lchanadi (**Measure**), uchinchi bosqichda esa olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, mahsulotni rivojlantirish bo'yicha xulosalar chiqariladi (**Learn**). Mazkur sikl startap jamoasiga mahsulotni iterativ tarzda rivojlantirish hamda bozor ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi (Blank & Dorf, 2020).

Lean Startup yondashuvida gipotezalarni sinovdan o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Startap jamoasi mahsulot haqida turli gipotezalar ilgari suradi va ularni eksperimentlar orqali tekshiradi. Masalan, foydalanuvchilar mahsulotning qaysi funksiyalaridan ko'proq foydalanishi yoki qaysi narx strategiyasi samaraliroq ekanligini aniqlash uchun turli eksperimentlar o'tkaziladi. Ushbu jarayonda **A/B test** kabi metodlar keng qo'llaniladi. A/B test orqali mahsulotning ikki xil varianti



sinovdan o'tkazilib, qaysi biri foydalanuvchilar tomonidan yaxshiroq qabul qilinayotgani aniqlanadi.

Lean Startup metodologiyasining yana bir muhim elementi **pivot** tushunchasi hisoblanadi. Pivot startap strategiyasining muayyan yo'nalishini o'zgartirishni anglatadi. Agar mahsulot yoki biznes model kutilgan natijalarni bermasa, startap jamoasi mavjud ma'lumotlarni tahlil qilib yangi strategiya ishlab chiqishi mumkin. Pivot jarayoni startaplarning moslashuvchanligini oshiradi va mahsulotni bozor ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi (Blank & Dorf, 2020).

Ko'plab muvaffaqiyatli startaplar dastlabki rivojlanish bosqichida bir necha bor pivot qilgan. Masalan, Instagram dastlab geolokatsiya va ijtimoiy funksiyalarga ega ko'p funksiyali ilova sifatida shakllangan bo'lsa, keyinchalik foto almashish platformasiga yo'naltirilgan. Bu holat startap muvaffaqiyati ko'pincha to'g'ri strategiyani topish va uni vaqtida o'zgartirish jarayoniga bog'liq ekanligini ko'rsatadi (Blank & Dorf, 2020).


Lean Startup konsepsiyasi mahsulot–bozor mosligini aniqlashda ham muhim rol o'ynaydi. **Product–Market Fit** tushunchasi mahsulotning real bozor ehtiyojlariga qanchalik mos kelishini ifodalaydi. Agar mahsulot foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirsa va ular uni muntazam ravishda ishlata boshlasa, mahsulot–bozor mosligi mavjud deb hisoblanadi. (Andreessen, 2021).

Tadqiqot natijalari ham Lean Startup amaliyotlari startap jamoalarida keng qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Respondentlar fikriga ko'ra, MVP asosida bozorga tez chiqish, foydalanuvchi fikrlarini o'rganish hamda mahsulotni iterativ rivojlantirish startap jamoalarining samaradorligini oshiradi. Bu esa startap jamoalariga bozor o'zgarishlariga tezroq moslashish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, respondentlarning 41 foizi startap rivojlanish jarayonida pivot strategiyasidan foydalanganini bildirgan. Bu ko'rsatkich startaplarning muhim qismi bozor sharoitlari, foydalanuvchi ehtiyojlari yoki



mahsulot natijalari asosida o'z strategiyasini qayta ko'rib chiqishga tayyor ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, respondentlarning 59 foizi pivot qilmaganini bildirgan bo'lib, bu startaplarning bir qismi hali dastlabki strategiya asosida faoliyat yuritayotganini anglatadi. Mazkur natija pivot strategiyasining startap boshqaruvida muhim, ammo barcha startaplar tomonidan bir xil darajada qo'llanilmaydigan mexanizm ekanligini ko'rsatadi.



4.2.3-rasm. Startaplarda Pivot strategiyasidan foydalanish darajasi

Manba: So'rovnoma asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Startap loyihalari yuqori darajadagi noaniqlik bilan tavsiflanadi. Innovatsion mahsulot yaratish, yangi bozorlarni o'rganish hamda yangi biznes modellarni sinovdan o'tkazish jarayonida turli xil risklar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli risklarni samarali boshqarish startap muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Risk Management — bu loyiha jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash hamda ularni kamaytirish yoki boshqarish bo'yicha tizimli jarayondir (ISO 31000:2020).



Ilmiy adabiyotlarda risk tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Kerzner 2022 riskni loyiha natijasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan noaniqlik sifatida ta'riflaydi. Ushbu noaniqlik ijobiy yoki salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Startap muhitida risklar ko'pincha salbiy oqibatlar bilan bog'liq bo'lsa-da, ayrim hollarda risklar yangi imkoniyatlar paydo bo'lishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Startap loyihalarida uchraydigan risklarni bir nechta asosiy kategoriyalarga ajratish mumkin. Birinchi navbatda, **bozor riski** muhim hisoblanadi. Bozor riski mahsulotga bo'lgan talabning yetarli emasligi yoki mahsulot bozor ehtiyojlariga mos kelmasligi bilan bog'liq. Ko'plab startaplarning muvaffaqiyatsizlikka uchrashining asosiy sababi aynan mahsulot-bozor mosligining yetarli darajada aniqlanmaganligi bilan bog'liq (CB Insights, 2023).

Xulosa

Mazkur tadqiqotning ushbu bo'limida startap ekotizimida faoliyat yuritayotgan 27 nafar mutaxassis ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari tahlil qilindi. Respondentlarning lavozimlari va tajribasi bo'yicha o'rganilishi shuni ko'rsatdiki, tadqiqotda startap jamoasining turli qatlamlari (asoschilar, rahbarlar, Project/Product Managerlar, Tech Leadlar, investor va boshqa mutaxassislar) vakillari ishtirok etgan. Bu esa natijalarning ishonchliligini oshiradi. Respondentlarning ko'pchiligi (56%) startap sohasida 0–1 yillik tajribaga ega bo'lib, ularning 63% g'oya bosqichidagi startaplar bilan ishlamoqda. Bu O'zbekiston va mintaqadagi startap ekotizimining hali rivojlanishning dastlabki bosqichlarida ekanligini va yangi loyihalar sonining ko'payib borayotganini bildiradi.

Tadqiqot shuningdek, startap boshqaruvida moslashuvchan metodologiyalarning ahamiyatini tasdiqladi. Xususan, respondentlarning 18 nafari (taxminan 67%) o'z faoliyatida **Agile** metodologiyasidan foydalanayotganini qayd etdi. Bu zamonaviy



startaplar uchun qat'iy (Waterfall) yondashuvlardan ko'ra iterativ, foydalanuvchi markazli va tez moslashuvchan boshqaruv usullarining samaradorligini ko'rsatadi. Agile metodologiyasi orqali startaplar noaniq muhitda tezroq mahsulot takomillashtirishi, foydalanuvchi fikr-mulohazalarini hisobga olishi va resurslarni samarali boshqarishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari startap muvaffaqiyati uchun **Agile, Lean Startup, Risk Management, Pivot** strategiyasi va **Product-Market Fit** kabi yondashuvlarni qo'llash zarurligini yana bir bor ta'kidlaydi. Kelgusida O'zbekiston startap ekotizimini rivojlantirishda ushbu metodologiyalarni keng joriy etish, mutaxassislar malakasini oshirish va moslashuvchan boshqaruv madaniyatini shakllantirish muhim strategik yo'nalish bo'lishi lozim. Tadqiqot natijalari startap asoschilari, investorlar va siyosat ishlab chiqaruvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beck, K., Beedle, M., Bennekum, A. V., Cockburn, A., Cunningham, W., Fowler, M., ... & Thomas, D. (2001). *Manifesto for Agile Software Development*. Agile Alliance.
2. Blank, S., & Dorf, B. (2020). *The Startup Owner's Manual: The Step-by-Step Guide for Building a Great Company*. Wiley.
3. PMI (Project Management Institute). (2021). *A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK® Guide)* (7th ed.).
4. PMI. (2021–2024). *Pulse of the Profession* reports.
5. Schwaber, K., & Sutherland, J. (2020). *The Scrum Guide*. Scrum.org.